

OILADA BOLALARNING MEHNAT TARBIYASI

I.Karimov, Qo'qon DU professori, p.f.n.

Maqolada oilada bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga oid uslubiy tavsiyalar yoritilgan.

Ma'lumki, hech bir bola onadan jinoyatchi yoki buzg'unchi bo'lib tug'ilmaydi. Bolalarning kelgusida qanday tarbiya topishi, qanday xislatlarga ega bo'lishi, kim bo'lib etishishi bevosita uni o'rab turgan muhitga bog'liqdir. Bunda oila muhiti, oila tarbiyasi bolalarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham xalqimizda: "Bola – oila ko'zgusi", "Qush inida ko'rganini qiladi", "Onasini ko'rib qizini ol" kabi maqollar bejiz aytilmagan. Bulardan ko'rinadiki, oilada bolalarni yoshligidan boshlaboq mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga, kattalarni hurmat qilishga o'rgatib borish zarur. Zero "Niholni yoshidan, bolani boshidan tarbiyalash kerak" degan xalq maqoliga amal qilish yaxshi natijalarni beradi. Bolalarniig oila sharoitida kattalar bilan birgalikda polizda, bog'da, gulzorda ishlashi juda yoshlikdan boshlab ularda mehnat ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Agar oilada bu ish oqilona tashkil etilsa, bola o'z mehnatining samarasini ko'radi va undan quvonadi, shavq-zavqqa to'ladi. Axir ko'zga zo'rg'a tashlanadigan mayda urug'lardan rang-barang gullar, shirin-shakar qovun, tarvuzlarning, bir-biridan mazali mevalarning etishishi yosh bolalarni hayratga soladi va ularda yoshlikdan boshlab dehqonchilik kasbiga havas uyg'otadi. Afsuski, bolaniig ekin ekishga bo'lgan havasini barcha ota-onalar ham qo'llab-quvvatlamaydilar. Ko'pincha o'z farzandini tuproq ichida ko'rgan ona "Chiq u yerdan, kiyimlaringni iflos qilasan", "Tesda o'ynama, oyog'iigni chopib olasan", "Urug' ekishni senga kim qo'yibdi, bu kattalarning ishi" deb tanbeh beradi. Bu esa boladagi mehnatga, o'z qo'li bilan ko'kalamzor yaratishga bo'lgan havasni so'ndiradi.

Ma'lumki, ochiq havoda jismoniy mehnat qilish, ko'm-ko'k maysalar

ichida yurish, avvalo, bola sog'ligi uchun juda foydalidir. Chunki bu organizmda modda almashinuvini yaxshilaydi, asab tizimini mustahkamlaydi, bolaning kayfiyatini yaxshi bo'lishini, uning hamisha tetik va quvnoq yurishini ta'minlaydi. Poliz yoki bog'da mehnat qilishning foydasi faqat shu emas. Atrofdagi yam-yashil nihollar bola ko'zini quvontiradi, unga sevinch va zavq bag'ishlaydi. Ekinlarni parvarish qilish jarayonida esa bolada tabiatga, yashil o'simliklarga iisbatan muhabbat shakllanadi, mehnat qilishga ishtiyoq ortadi. U Ona yer yuzini ko'kalamzorlashtirishga qo'shgan kichik bir hissasidan cheksiz mamnun bo'ladi. Bularning hammasi bolaning komil inson sifatida shakllanishida muhim ahamiyatta egadir.

Polizda ishlash bolaning bilim doirasini ham kengaytiradi. Chunki o'simliklarning rivojlanishini kuzatar ekan, ularda yuz berayotgan har bir o'zgarishni bola sezadi, maysalarning bir-biridan farqlash va ular o'sayotgan sharoitdagi tuproqning xususiyati haqida tushuncha hosil qiladi, mehnat qurollarini ishlata bilish ko'nikmalarini egallaydi.

Bolaning yer uchastkasida qiladigan mehnati – yer chopish, egat va ariqchalar tortish, urug' ekish yoki ko'chat o'tqazish, o'simliklarni parvarish qilish, turli zararli hashoratlarga qarshi kurashish, hosilni yig'ishtirish kabi ish turlaridan iborat bo'lishi mumkin. Ota-onaning yoki boshqa katta kishilarning vazifasi esa yosh bolalarni yer uchastkasida qilinadigan ana ishlarning mazmuni va bosqichlari bilan batafsil tanishtirishdan iboratdir. Yer uchastkasida qilinadigan dastlabki ish yerni o'g'itlash va tuproqni yaxshilab yumshatishdan boshlanishini bolalar bilsin.

Uy sharoitida yer odatda chirindi va boshqa mahalliy o'g'itlar bilan o'g'itlanadi. Ularga mineral o'g'itlar qo'shib solinsa yana ham yaxshi bo'ladi. Bu tuproqni ozuqa moddalarga boy bo'lishini ta'minlashdan tashqari yerni yumshatadi, o'simlik maysalarining yaxshi rivojlanishiga imkon beradi. So'ng o'g'itni tuproqqa aralashtirish maqsadida yer yaxshilab chopiladi. Shu o'rinda kattalar o'g'itlarning turlari, yerni o'g'itlashning ahamiyatini bolalarga atroflicha tushuntirishlari lozim. Bu ishlarning barchasi bolalar ko'zi oldida va ularning

bevosita ishtirokida qilinadi.

Yer uchastkasiga rediska, ukrop, kashnich, piyoz, bodring, pomidor, handalak kabi sabzavot va poliz ekinlari hamda tez ochiladigan turli xil mayda gullardan ekkan maqul. Chunki bu o'simliklar tez rivojlanadi va erta hosil beradi. Bu o'simliklarning urug'i yerga sepilgach, 5-8 kunda unib chiqadi. Erdan endigina unib chiqqan o'simlik turlarini dastlab bir-biridan farq qilish qiyii. Keyinroq esa ularning bargi o'z shaklini o'zgartira boshlaydi. Bolalar endi maysaning bargiga qarab qaysi o'simlik ekanini bemalol aytib berishlari mumkin. Albatta, bunga ular mashq qilish, uzoq vaqt kuzatish olib borish tufayligina erishadilar. Agar unib chiqqan o'simlik maysalari juda qalin bo'lsa, uni yagona qilish yo'li bilan siyraklatish lozimligiga bolalarga tushuntirish kerak. Shunday qilinsagina, o'simlik maysalari yaxshi rivojlanishi va tez hosilga kirishini bolalar tushunsin.

Ko'pchilik o'simliklar, birinchi navbatda poliz ekinlarining tagini vaqti-vaqti bilan yumshatib turish zarurligiga ham bolalar e'tiborini qaratish kerak. Masalan, bodring maysalari 2-3 quloq bo'lganda unga dastlabki ishlov beriladi: tagi yumshatiladi, ehtiyojga qarab sug'oriladi. Har bir sug'orishdan so'ng maysalarning tagi yana yumshatiladi.

O'simliklar turli xil bo'lgani kabi ularni oziqlantirish muddatlari ham har xil. Masalan piyoz, rediska, bodring, handalak kabilar taxminan 3-4 dona barg hosil qilgandan so'ng oziqlantiriladi. Ildizidan hosil beruvchi piyoz, sabzi, rediska, turp, sholg'om kabi sabzavotlarni superfosfat o'g'iti bilan oziqlantirish maqsadga muvofiqdir. Chunki mineral o'g'itning bu turi yerni yumshatadi va sabzavotlarning yer osti qismlarini yaxshi rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Ukrop, kashnich, karam, rayhon kabi bargidan hosil beruvchi ekinlar esa azotli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi. Chunki azot asosan o'simlikning bargiga kuch berib, ularning juda tez rivojlanishiga olib keladi. Mineral o'g'itlar mahalliy o'g'itlar bilan qo'shib ishlatilsagina yaxshi natija beradi. Xuddi shu singari bolalar o'g'itlash me'yorlari va qoidalari bilan ham batafsil tanishtiriladi.

Yer uchastkasida qilinadigan yuqoridagi ishlarning barchasida bolalar shaxsan ishtirok etadilar va qo'llaridan kelganicha mehnat qiladilar. Ota-onalar va aka-opalarning vazifasi bolalar mehnatini nazorat qilib borish, tegishli ko'rsatmalar berish, kerak bo'lganda amaliy yordam ko'rsatishdir. Bunda bolalar mehnatida hamisha o'yin elementlari bo'lishi lozimligini ham unutmasligimiz kerak.

Yer uchastkasida qilinadigan har bir ish jarayonida mehnat tarbiyasi maqsadlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Buning uchun bajarilayotgan har bir ish turini sifatli, chiroyli bo'lishi lozimligiga bolalar diqqatini tortib turish kifoyadir. Shundagina bolalar juda yoshlikdan boshlab mehnatdan zavqlanishga, undagi go'zallikni ko'ra bilish va chuqur his qila olishga o'rganadilar. Har bir nihol va ko'chatni asrab-avaylash, mehr bilan parvarish qilishga o'rgatish ham bolalarda mehnatga muhabbatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma'naviyat. 1998.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T., 2015.
3. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 320 b.
4. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi: Darslik. – T.: Aloqachi, 2007.